

“Kelajak soati” darsining 9-11- sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

24-mavzu: “Bir yaxshilik haqida”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya. Ushbu dars ishlanmasi 9-11-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda “Bir yaxshilik haqida” mavzusi asosida yaxshilik qilish, insonparvarlik, mehr-shafqat va ezgulikning mohiyati, ularning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy hamda tarbiyaviy jihatdan yoritib berilgan. Dars davomida o‘quvchilarga yaxshilikning asl ma‘nosi, uni kundalik hayotda ifodalash yo‘llari, insonlar o‘rtasida mehr, o‘zaro yordam, do‘stlik va hamjihatlikni qaror toptirishdagi roli haqida tushuncha beriladi. O‘quvchilarda ezgu ish qilishga intilish, boshqalarga yordam berish, mehribonlik va saxovat kabi fazilatlarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Yaxshilikning inson kamoloti va jamiyat farovonligidagi o‘rni turli hayotiy misollar, hikmatlar, rivoyatlar va real voqealar orqali ochib beriladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarga yaxshilik tushunchasi, uning inson hayotidagi o‘rni va ma‘naviy-axloqiy mohiyatini chuqur tushuntirish.
2. O‘quvchilarda insonparvarlik, mehr-shafqat, saxovat, o‘zaro yordam kabi fazilatlar haqida tushuncha berish va ularni hayotda qo‘llashga o‘rgatish.
3. O‘quvchilarda ezgulik qilish, halollik, to‘g‘rilik va kechirimlilik kabi qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish.
4. Yaxshilik qilgan insonlarning ibratli hayotini o‘rganish, ularning fazilatlarini namuna sifatida keltirish orqali yoshlarni ezgu ishlarga undash.

Asosiy g‘oyalar: “Bir yaxshilik haqida” mavzusi – inson qalbini poklaydigan, jamiyatni uyg‘otadigan va birlik sari yetaklaydigan muhim g‘oyadir. Yaxshilik – bu insonni ulug‘laydigan, yuraklarni birlashtiradigan, hayotga ma‘no bag‘ishlaydigan ezgu amal. Har bir inson qilgan yaxshiligi orqali nafaqat boshqalarga, balki o‘ziga ham nur sochadi. Yaxshi niyat, yaxshi so‘z va yaxshi amal – insonni barkamollikka eltuvchi uch tayanchdir. Yaxshi insonlar jamiyatning tayanchi, xalqning ishonchi va millatning g‘ururi sanaladi. Bugungi kunda ham yaxshilik qiluvchi, mehribon va ezgu niyatli yoshlar mamlakatimiz taraqqiyoti va insoniy qadriyatlarning poydevori hisoblanadi.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy:

- O‘quvchilar “yaxshilik”, “ezgulik”, “insonparvarlik” tushunchalarining mazmunini anglaydi.

- Yaxshilik qilish insoniy barkamollikka eltuvchi asosiy yo'l ekanligini tushunadi.

- Ezgulik, saxovat va o'zaro hurmat qadriyatlari haqidagi bilimlari kengayadi.

2. Hissiy va qadriy:

- O'quvchilarda mehr, rahm-shafqat, kechirimlilik, bag'rikenglik tuyg'ulari kuchayadi.

- Boshqalarga yaxshilik qilish, yordam berish, mehr bilan munosabatda bo'lish istagi paydo bo'ladi.

- Yaxshi inson bo'lish, boshqalar dardiga befarq bo'lmaslikka ijobiy hissiy munosabat shakllanadi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

- O'quvchilar kundalik hayotda yaxshilik qilish, boshqalarga yordam berish ko'nikmasini egallaydi.

- Ezgu fikrni amalda ifodalash, muomala madaniyatida insoniylikni namoyon etish odat tusiga kiradi.

- O'quvchilar hayotiy misollar orqali yaxshilikning kuchini tahlil qiladi va o'z fikrini mustaqil ifoda eta oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik:

- O'quvchilar jamiyatda yaxshilik va ezgulikni targ'ib etishning ahamiyatini tushunadi.

- Yaxshi ishlarga da'vat orqali oila, maktab va jamoada ijobiy muhit yaratishga hissa qo'shadi.

- O'quvchilarda insonlarga mehr bilan yondashish, g'amxo'rlik va mas'uliyatli munosabat fazilatlari mustahkamlanadi.

- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, faxr va iftixor tuyg'usi shakllanadi.

Metapredmet: Bu dars o'quvchilarda faqat bitta fan doirasida emas, balki turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

- Tahliliy va tanqidiy fikrlash: O'quvchilar yaxshilikning mohiyatini tahlil qiladi, hayotiy misollar orqali ezgulikning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi.

- Fuqarolik qadriyatlariga asoslangan dunyoqarash: O'quvchilar insonparvarlik, saxovat, yordamga shaylik kabi fazilatlarni o'z hayotida tatbiq etishga intiladi.

- Jamoada ishlash va ijtimoiy muloqot: Guruhli topshiriqlar orqali o'quvchilar hamkorlikda ishlash, fikr bildirish va bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyatini o'rganadi.

- Axborotni qidirish va baholash: O‘quvchilar yaxshilik haqidagi maqollar, hikmatlar, rivoyatlar va hayotiy misollarni izlab topadi, ularni tahlil qiladi va darsda qo‘llaydi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, videoparchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.


I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Bugun sizlar bilan hayotimizdagi eng muhim fazilatlardan biri – **yaxshilik** haqida suhbatlashamiz.

Tasavvur qiling: siz juda mashhur inson bo'ldingiz. Butun dunyo sizni taniydi. Millionlab muxlislaringiz bor. Boylik, obro', imkoniyat – hammasi qo'lingizda. Shunday paytda siz nimani tanladingiz: faqat o'zingiz uchun yashashnimi? Yoki boshqalarning hayotiga ham foyda keltirish haqida o'ylarmidingiz?

Bugun gap aynan shu tanlov haqida bo'ladi.

O'qituvchi doskaga (yoki monitorga) aktyor Shohrux Xonning suratini ilib qo'yadi.



O'qituvchi: Sizningcha, haqiqiy muvaffaqiyat nimada? Mashhurlikdami? Boylikdami? Yoki kuchdami?

(O'quvchilar fikr bildiradi)

O'qituvchi: Kelinglar, real misolni ko'ramiz. Dunyoga mashhur hind aktyori Shohrux Xonni deyarli barchangiz bilsangiz kerak. Uni ko'pchilik kino yulduzi sifatida taniydi. Lekin u millionlab dollar mablag'larini turli xayriya fondlariga yo'naltiradi. Ayniqsa, kasal bolalar, ta'lim olish imkoniyati cheklangan yoshlar, ayollar huquqlarini qo'llab-quvvatlash yo'lida juda katta ishlar qilgan.

Natijada, u nafaqat san'at sohasida, balki insonparvarlik yo'lida ham e'tirof etildi.

Shohrux Xon xayriya faoliyatini ko'z-ko'z qilishni yoqtirmaydi. Lekin xalqaro tashkilotlar baribir uning yaxshiliklaridan xabardor bo'lib, uni mukofotlashgan. Xususan, u UNESCO mukofotiga sazovor bo'lgan ilk hind fuqarolaridan biri sanaladi. Shuningdek, Jahon iqtisodiy forumida xayriya faoliyati uchun Crystal Awards mukofoti bilan taqdirlandi.

Nima deb o'ylaysiz, nega butun dunyo mashhur aktyorni aynan xayriyasi uchun ham qadrladi?

(O'quvchilar javob beradi)

O'qituvchi: Chunki insonning buyukligi faqat erishgan yutuqlaridagina emas, balki boshqalarga qilgan yaxshiligida ham namoyon bo'ladi. Bugungi darsimiz ham aynan shu haqida.

Pauza.

O'qituvchi: Siz "filantropiya" degan so'zni eshitganmisiz?

(O'quvchilar javobi)

O'qituvchi: Filantropiya – bu shunchaki kimgadir achinib yordam qilish emas. Bu – ongli ravishda, tizimli tarzda, jamiyatga foyda keltirishga qaratilgan harakat. Hozir tomosha qiladigan videomiz aynan shunday insonlar haqida.

Bu video sizga bitta savol ustida o'ylashga yordam beradi:

Mashhurlik va boylik insonni buyuk qiladimi? Yoki boshqalarga qilgan yaxshiliklarimi?

Vizual kontent

Filantropilar haqida eshitganmisiz?

<https://youtu.be/ATgL6bm4qFY>

O'qituvchi: Juda muhim nuqtaga e'tibor beringlar: filantropiya – bu faqat pul berish emas. Bu mas'uliyat, tafakkur, jamiyat oldidagi ongli pozitsiya degani.

Ba'zan bir insonning mablag'i emas, g'oyasi jamiyatni o'zgartiradi.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Hozir juda muhim bir savol ustida o'ylab ko'raylik.

Bugun mamlakatimizda eng katta, eng faol, eng harakatchan qatlam kim?

Albatta – yoshlar.

Sizlar nafaqat son jihatdan ko'pchiliksiz. Sizlar jamiyat kayfiyatini, muhitini, hatto kelajak yo'nalishini belgilaydigan kuchsiz. Shuning uchun oddiy savol tug'iladi:

Agar yoshlar yaxshilik qilishni odat qilsa, jamiyat qanday bo'ladi?

(O'quvchilar javobi)

O'qituvchi: Jamiyat birdaniga o'zgarmaydi. Uni qonunlar ham, islohotlar ham, texnologiyalar ham yolg'iz o'zgartira olmaydi. Jamiyatni eng tez o'zgartiradigan narsa – yaxshilik.

Ko'pincha odamlar yaxshilikni juda katta ish deb tasavvur qiladi.

Go'yoki, yaxshilik qilish uchun katta mablag' kerak, katta imkoniyat, mashhurlik kerak degan noto'g'ri qarash bor.

Aslida esa yaxshilikni istasa hamma hoziroq qilishi mumkin. Yaxshilik – bu kundalik odat aslida.

Ba’zan juda oddiy narsalar ham yaxshilik bo’lishi mumkin. Masalan, kimnidir tinglash, kimnidir qo’llab-quvvatlash, biliming bilan yordam berish, vaqtingni ajratish, hatto oddiy yaxshi muomala ham yaxshilikdir.

Xo’sh, Siz oxirgi marta qachon hech qanday manfaat kutmasdan yaxshilik qilgansiz?

(2-3 o’quvchi javobi)

O’qituvchi: Filantrop bo’lish uchun millioner bo’lish shart emas. Jamiyatga foyda keltirish uchun mashhur bo’lish ham shart emas. Ba’zan oddiy insonlarning kichik harakatlari katta ijtimoiy ta’sir ko’rsatadi.

Chunki yaxshilikning qadri hajmida emas, ta’sirida. Bir insonning kayfiyatini ko’tarish ham ba’zan juda katta yaxshilik bo’lishi mumkin.

Endi yaxshilikka boshqa bir nuqtayi nazardan qaraymiz.

Sizlar oddiy yoshlar sifatida fikr bildirdingiz. Keling, endi bir ko’raylik-chi, rahbarlar qanday o’ylaydi?

Hozir sizlarga ko’p yillik hokimlik tajribasiga ega, bir nechta viloyatlarni boshqargan, bugungi kunda Sirdaryo viloyati hokimi, senator Erkinjon Turdimovning mavzuga doir fikrlari aks etgan videoni qo’yib beraman. Videolavhani ko’rar ekansiz, quyidagi savollarga javob izlang: rahbarlar kimlarga va qanday yaxshiliklar qiladi? Nima uchun?

Vizual kontent

“Yaxshilik qaytadi” – Erkinjon Turdimov

<https://youtu.be/ZuOTnYBWbzY>

O’qituvchi: Hokimning qaysi fikri sizga ma’qul bo’ldi?

(O’quvchilar javoblari tinglanadi)

O’qituvchi: Qiziq bir haqiqat bor. Hayotda katta muvaffaqiyatga erishgan ko’plab insonlar o’z yo’lining boshida kimningdir yaxshiligini eslaydi.

Ularga kimdir ishonch bildirgan. Kimdir yordam bergan. Kimdir qo’llab-quvvatlagan. Hozir mashhur va muvaffaqiyatli insonlarning o’zlari ko’rgan yaxshilik haqida hikoyalarini tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Yaxshilik hikoyalari (2-qism)

<https://youtu.be/NujWVxgHCjQ>

O‘qituvchi: Nima deb o‘ylaysiz, nega ular aynan shu voqealarni yillar o‘tsa ham unutmaydi?

(O‘quvchilar javoblari tinglanadi).

O‘qituvchi: Demak, yaxshilik faqat bir martalik harakat emas. U inson xotirasida bir umrga qolishi, inson taqdiriga ta’sir qilishi, inson hayot yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin. Ba’zan birgina qo‘llab-quvvatlash butun umrga yetadigan kuch beradi.

O‘qituvchi (*ohangni jiddiylashtirib*): Endi juda nozik, lekin muhim mavzuga e’tibor qaratamiz.

Ba’zi insonlar uchun yaxshilik – bu shunchaki quvonch emas. Bu – hayot-mamot masalasi. Hozir shunday insonlar ishi tushib keladigan Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi markazidan tayyorlangan reportajni tomosha qilamiz. Videoni ko‘rar ekansiz, e’tiborda tuting: ba’zan yaxshilik kimningdir hayotini saqlab qolishi mumkin! Hozir sizlarga qo‘yib beriladigan videolavhadan so‘ng, albatta, kimgadir yaxshilik qilgingiz kelib qolishi shubhasiz. Marhamat, ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi

<https://youtu.be/olcWB3j3CTU>

O‘qituvchi: Ushbu videoda siz ko‘rgan muassasa Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangidan barpo etilgan bo‘lib, Prezidentimizning bolalarga katta g‘amxo‘rligi natijasidir. Yaxshilik faqat alohida insonlar harakati emas. Davlat darajasida ham bu yo‘nalish juda muhim. Bugungi kunda yurtimizda insonlar hayotini yaxshilash, inson qadrini ulug‘lash, qulay sharoit yaratish, ta’lim, ijtimoiy himoya, infratuzilma sohalarida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat siyosatida ham bitta muhim tamoyil bor. Prezidentimiz ta’kidlaganidek:

“Inson qadri uchun xizmat qilish – eng oliy vazifa.”

Mana kuni kecha AQSh prezidenti Donald Tramp ham bizdagi islohotlarni maqtab, Prezidentimizga : “Sizlarda hammasi zo‘r ketyapti” dedi. Bular bari hurmatli Prezidentimizning inson qadrini ulug‘lash siyosati tufayli bo‘lyapti.

Keling, shu haqidagi videolavhani tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Yaxshilik va inson qadri

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/415

Kuchli interaktiv o‘yin – “Domino effekti”

O‘qituvchi: Kelinglar, kichik tajriba qilamiz.

Tasavvur qiling, sinfda kimdir bittagina kichik yaxshilik qildi. Masalan, kimdir kimnidir qo‘llab-quvvatladi, kimgadir yordam berdi yoki kimdir yaxshi so‘z aytdi

Bu harakat atrofdagilarga qanday ta’sir qilishi mumkin? Hozir shuni tekshirib ko‘ramiz.

O‘yin qoidasi:

Har bir o‘quvchi navbat bilan bitta jumla aytadi:

“Men do‘stimga shirin so‘z aytdim, bu yaxshilik natijasida ...”

Yonidagi o‘quvchi jumlanı yakunlaydi. Masalan: “uning kayfiyati ko‘tariladi”.

Keyin u ham qandaydir yaxshilikni aytadi. Masalan, “Men dugonamning gapi yoqmasa ham, jahl qilmadim, jilmaydim, endi u ham boshqalarga ham yaxshi munosabat qiladi” va hokazo. O‘yin shu tarzda butun sinf o‘quvchilari hammasi ishtirok etib bo‘lgunicha davom etadi.

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, yaxshilik domino effekti kabi ishlaydi. Bitta kichik harakat ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Jamiyatni yaxshilash uchun ham hamma birdaniga buyuk ish qilishi shart emas. Har kim o‘zidan boshlasa kifoya.

Chunki yaxshi jamiyat – yaxshilik qiladigan insonlardan tarkib topadi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Bugungi suhbat davomida juda oddiy, lekin muhim haqiqatga yaqinlashdik.

Yaxshilik – bu shunchaki chiroyli so‘z emas. Bu – insonning ichki pozitsiyasi. Bu – uning dunyoga qanday qarashidir.

Jamiyat qanday bo‘lishini ko‘p gapiramiz. Adolat, mehr, ishonch haqida orzu qilamiz. Lekin eng muhim savol doimo bir xil qoladi: **Jamiyat bizdan nimani kutadi?**

Pauza.

Jamiyat kimdir kelib uni o‘zgartirishini kutmaydi. Jamiyat – uni tashkil qiladigan insonlarning o‘zgarishini kutadi.

Yaxshilik qilish – bu faqat boshqalarga foyda emas. Bu o‘zingizni tarbiyalash, o‘zingizni kuchliroq qilish va o‘zingizni inson sifatida yuksaltirishdir. Yaxshilik qilgan inson esa o‘zgaradi, o‘sadi.

Yaxshilik har doim qaytadi. Ba’zan darhol emas. Ba’zan kutilmagan shaklda. Ba’zan yillar o‘tib. Lekin u yo‘qolmaydi.

Bugun qilgan kichik ezguligingiz kimningdir hayotida katta iz qoldirishi mumkin.

Va bir kun kelib, aynan o‘zingizga ham qaytishi mumkin.

Buyuk ishlar doimo katta harakatlardan boshlanmaydi. Ular oddiy odatlardan boshlanadi.

Bugun bitta yaxshilik qiling. Faqat bitta. Ertaga yana bittasini.

Shunda hayotingizda ham, atrofingizda ham nimadir o'zgarayotganini sezishni boshlaysiz.

Unutmang: yaxshilik – bu dunyoni o'zgartirishning eng sodda, eng arzon, eng kuchli yo'lidir. Bu imkoniyat har biringizning qo'lingizda.

Bugundan boshlang.

Darsimiz tugadi. Xayr, salomat bo'ling!